

## VAKOLATLI VAKILLIK ORQALI FUQAROLARNING HUQUQIY HIMOYASINI TA'MINLASH AHAMIYATI

**Abdiyeva Mujgona Amirkulovna**

*Toshkent davlat yuridik universiteti "Mediatsiya va nizolarni muqobil hal etish usullari" yo'nalishi*  
*magistranti E-mail: mujgonammm@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda fuqarolik ishlarida vakolatli vakillik va bepul huquqiy yordam tushunchalari, ularning fuqarolarning huquqlarini ta'minlashdagi o'рни nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Amaliy qismda fuqarolarga vakolatli vakillik orqali ko'rsatiladigan huquqiy yordam amaliyoti, sudlarda va boshqa huquqiy idoralarda yuzaga keladigan muammolar va cheklovlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, fuqarolarning huquqiy savodsizligi, kadrlar yetishmasligi va moliyaviy cheklovlar kabi amaliy to'siqlar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** vakolatli vakillik, huquqiy himoya, fuqarolik sudlari, bepul huquqiy yordam, huquqiy savodxonlik.

Huquqiy davlatning asosiy tamoyillaridan biri fuqarolarning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini ta'minlashdir. Fuqarolarning huquqiy himoyasini samarali tashkil etishda vakolatli vakillik instituti muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda fuqarolarning o'z huquqlarini to'liq anglamasligi, sud jarayonlarining murakkabligi va malakali huquqiy yordamga ehtiyojning oshishi sababli, vakolatli vakillik orqali huquqiy yordam ko'rsatish institutining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga muvofiq, har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlangan<sup>10</sup>.

Fuqarolar buzilgan huquq va manfaatlarini fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda shaxsan yoki o'zlarining vakili orqali himoya qilish imkoniyatiga ega.

Ba'zi hollarda fuqarolar fuqarolik ishlari bo'yicha sud majlisida shaxsan ishtirok eta olmaydi yoki qatnashishni istamaaydi. Fuqaroning sud majlislarida qatnashishga to'sqinlik qiladigan bir qancha holatlar mavjud bo'lishi mumkin bo'lib, ularga asosan uning kasalligi, xizmat safarga yuborilganligi, harbiy xizmat va boshqa holatlarning mavjudligi, qolaversa unda huquqiy savodxonlikning yetarli darajada emasligi sabab bo'lishi mumkin.

Fuqarolik protsessida vakillik – muayyan bir shaxs (vakil) unga berilgan vakolatlar doirasida boshqa shaxsning (vakolat bergan shaxs) nomidan va manfaatlaridan kelib chiqib protsessual harakatlarni amalga oshiradi. Fuqarolik protsessual kodeksining 65-moddasida ham mazkur tushunchaga ta'rif berilgan bo'lib, unga ko'ra fuqarolar o'z ishlarini sudda shaxsan yoki o'z vakillari orqali yuritishi mumkinligi, fuqaroinng ishda shaxsan ishtirok etishi uni ish bo'yicha vakilga ega bo'lish huquqidan mahrum etmasligi nazarda tutilgan.

Vakillik – muomala layoqati cheklangan, muomalaga layoqatsiz, bedarak yo'qolgan deb topilgan fuqarolar nomidan ham amalga oshiriladi.

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

Sudda vakillik qilishning 4 turi mavjud bo'lib, ularga: qonuniy vakillik, shartnoma bo'yicha (ixtioriy) vakillik, yuridik shaxs vakilligi, kasab uyushmalari va boshqa jamoat tashkilotlarining vakilligi kiradi oshiriladi<sup>11</sup>.

Odatda, qonuniy vakil sifatida ota-ona, farzandlikka olgan shaxslar, vasiylar, homiylar, bedarak yo'qolgan deb topilgan fuqaroning mol-mulkini qo'riqlash va boshqarish uchun tayinlangan shaxslar, meros mol-mulkini saqlash va boshqarish uchun tayinlangan saqlovchi shaxslar ishtirok etadi.

Fuqarolik protsessual kodeksning 67-moddasi talablarida ixtioriy vakillik keltirilgan. Unga ko'ra, ishonch bildiruvchi o'z huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish bo'yicha sudda ish yuritishni shartnoma bo'yicha (ixtioriy) vakillikka binoan vakilga topshiradi.

Quyidagilar shartnoma bo'yicha (ixtioriy) vakil bo'lishi mumkin:

- 1) advokatlar;
- 2) nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan yoki yon shajara bo'yicha qarindoshlar, shuningdek er (xotin) yoxud uning qarindoshlari;
- 3) yuridik shaxslarning xodimlari — shu yuridik shaxslarning ishlari bo'yicha;
- 4) notijorat tashkilotlarning vakolatli vakillari — shu tashkilotlar a'zolarining ishlari bo'yicha;
- 5) qonunga binoan boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish huquqi berilgan notijorat tashkilotlarning vakolatli vakillari;
- 6) birgalikda ishtirok etuvchilardan biri boshqa birgalikdagi ishtirokchilarning topshirig'i bo'yicha;
- 7) ishni ko'rib chiqayotgan sud tomonidan ishda jismoniy shaxslarning vakillari sifatida ishtirok etishga yo'l qo'yilgan shaxslar.

Sudda ish yuritish bo'yicha vakil sifatida professional faoliyat bilan faqat advokatlar shug'ullanishi mumkin<sup>12</sup>.

Professional yuridik yordam sifati va advokat kasbining nufuzini oshirish, shuningdek, sud ishini yuritishda tenglik va tortishuv prinsiplari odil sudlovni amalga oshirishga qaratilgan asosiy harakatlardir.

Mamlakatimizda so'nggi yillar ichida advokatura sohasini isloh etish, sud jarayonida tortirish prinsipini to'laqolinli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-maydagi "Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to'rg'isida"gi PF-5441-son Farmonining qabul qilinishi advokatura sohasini isloh etishni yangi bosqichga ko'tardi. Mazkur Farmonda belgilangan muhim ustuvor vazifalardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuniga 2018-yil 11-oktyabrdagi O'RQ-497-sonli O'zbekiston Respublikasining Qonuni bilan bir qator qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi<sup>13</sup>.

<sup>11</sup> Mamasiddiqov M. Fuqarolik protsessual huquqi. Umumiy qism. Darslik – T, 2012. 186-b.

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2018 y., 02/18/FPK/0612-son, 12.10.2018 y.,

<sup>13</sup> Pirmatov O. Fuqarolik protsessida advokat ishtiroki. Darslik-2025. 20-b

Bundan tashqari, yurtimizdagi “Inson qadri uchun” shiori ostida ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarning huquqiy manfaatlarini himoya qilish borasida qonunchiligimiz takomillashtirildi. Xususan, 2023-yil 16-iyunda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi.

Mazkur qonunga asosan, fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarga taalluflari quyidagi ishlarda ayrim toifadagi fuqarolarga bepul yuridik yordam ko‘rsatilishi belgilab berildi:

- ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash hamda to‘lash to‘g‘risidagi;
- ishga tiklash haqidagi;
- ish haqini undirish to‘g‘risidagi;
- alimtlarni undirish to‘g‘risidagi;
- uyga kiritish, turar joydan foydaolanish huquqini yo‘qotgan deb topish va ko‘chirish to‘g‘risidagi;

- mehnatda mayib bo‘lganlik yoki sog‘liqning boshqacha tarzda shikastlanganligi, shuningdek, boquvchining vafot etganligi tufayli yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash haqidagi ishlar.

Shuningdek, ruhiy holati buzilgan jismoniy shaxslarga psixiatriya yordami ko‘rsatilayotganda, davlat hisobidan yuridik yordam:

- tashxis qo‘yish, davolash va realitatsiya qilish;
- tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash;
- jinoyat, fuqarolik ishlari va ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud-psixiatriya ekspertizasini o‘tkazish chog‘ida ko‘rsatiladi.

Xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi buzilganligi to‘g‘risidagi ishlarni sudlarda ko‘rish chog‘ida davlat hisobidan yuridik yordam xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta‘minlashning quyidagi yo‘nalishlari bo‘yicha ko‘rsatiladi:

- davlat fuqarolik xizmati sohasida;
- saylov huquqlarini amalga oshirishda;
- iqtisodiy sohada hamda tadbirkorlikni faoliyatida;
- mehnat munosabatlarida;
- ijtimoiy himoya sohasida;
- oilaviy munosabatlar hamda bolalar tarbiyasi sohasida;
- ta‘lim, ilm-fan, madaniyat hamda sog‘liqni saqlash sohasida<sup>14</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 67-moddasiga muvofiq, “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatning ishtirok etishini ta‘minlash choralari ko‘rishi shart.

Bugungi kunda vakillik institutining samarali ishlashi uchun, huquqiy tizimda bir qator muammolar mavjud bo‘lib, bulardan biri vakolatli vakilning faoliyatini nazorat qilishning yetarli darajada rivojlanmaganidir. Vakil o‘z vakolatlarini suiste‘mol qilishi, fuqaro manfaatlariga zid harakatlar qilish ehtimoli yuqori. Shu sababli, vakolatli vakilni qanday nazorat qilish, uning harakatlari va qarorlarini kimlarning tekshirishlari kerakligi hamda qanday hollarda uning faoliyati tugatilishi lozimligi aniq belgilanmagan. Bu huquqiy

<sup>14</sup>“Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonun

tizimning ishonchliligiga jiddiy putur yetkazadi. Keyingi muammo esa, vakolatli vakillikni amalga oshirayotgan shaxslarda malaka va bilim darajasining pastligi. Ularning yetarlicha yuridik bilim hamda tajribaga ega bo'lmashligi va fuqaroning huquqlarini himoya qilishga qodir bo'lmashliklari ko'plab holatlarda huquqiy zaiflikka olib keladi. Bu esa, fuqaroning manfaatlariga qarshi ishlovchi vakillarning faoliyatiga olib kelishi mumkin. Ko'p hollarda, vakillik huquqini to'g'ri amalga oshirish uchun qonunlar va qoidalarni to'g'ri tushunadigan vakillarning yetishmasligi masalasiga duch kelinadi.

Navbatdagi muammo esa, fuqaro huquqlarini himoya qilishda vakolatli vakillik tizimining murakkabligi va u haqda ko'plab fuqarolarning bilmashligidir. Vakillik tizimi ba'zan juda murakkab, va fuqarolar bu tizimdan qanday foydalanishlarini bilmashliklari mumkin. Vakolatli vakilga murojaat qilish jarayoni ko'plab huquqiy boshqaruv organlari va talablarni o'z ichiga olganligi sababli, fuqarolar bu tizimdan foydalanishda qiynalishadi.

Shu sababdan, birinchi navbatda, vakolatli vakillikning huquqiy jihatlari bo'yicha ko'proq tushuntirish ishlari olib borilishi kerak. Davlat organlari, fuqarolarni vakillik tizimi haqida xabardor qilish, bu tizimdan qanday foydalanish mumkinligini tushuntirish bo'yicha keng ko'lamli targ'ibot ishlarini amalga oshirishlari lozim. Shuningdek, vakolatli vakil bo'lish uchun aniq malaka talablarini belgilash va bu talablarga rioya qilinishini qat'iy nazorat qilish zarur. Shu bilan birga, vakillarning faoliyatini nazorat qiluvchi mustaqil organlar tashkil etilishi, bu tizimning ishonchliligini oshirishga yordam beradi. Vakillik faoliyatini nazorat qiluvchi tashkilotlar, vakillik tizimi orqali amalga oshirilgan har bir qarorni tekshirishi va fuqaroning manfaatlariga zid bo'lgan harakatlarni oldini olish uchun zarur choralar ko'rishi lozim.

Shuningdek, vakolatli vakillik tizimining shaffofligini ta'minlash uchun yangi huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilishi zarur. Fuqarolarga vakolatli vakilni tanlashda yordam berish uchun ularning faoliyatini baholash tizimi yaratish va bu tizimni jamoatchilikka ochiq qilish kerak. Buning uchun, vakolatli vakillarni qayd etadigan va ularga nisbatan ishonchlik reytingi beradigan davlat organlari hamda mustaqil tashkilotlar faoliyat ko'rsatishi kerak.

Vakolatli vakillik tizimi orqali fuqarolarning huquqlarini to'g'ri va samarali himoya qilish uchun bir qator normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishi va ular doimiy ravishda yangilanib turilishi zarur. Ayniqsa, nogironlar, qariyalar va boshqa huquqiy himoyaga muhtoj fuqarolar uchun zamonaviy va ishonchli yuridik vositalar yaratish, ularni vakolatli vakil orqali himoya qilishda yordam beradi. Vakolatli vakillik tizimini mukammallashtirish orqali, jamiyatda adolatni ta'minlash va fuqarolarning huquqlarini ishonchli himoya qilish imkoniyatlari oshadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son



2. Mamasiddiqov M. Fuqarolik protsessual huquqi. Umumiy qism. Darslik – T, 2012.
3. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi.(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.01.2018 y., 02/18/FPK/0612-son, 12.10.2018 y.
4. Pirmatov O. Fuqarolik protsessida advokat ishtiroki. Darslik-2025.
5. “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonun